

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
383 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolibboyev Samad Tolibboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlar.....	177
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Немаджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari.....	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar.....	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni	322
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish	327
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari	335
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Turizmida transport logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	340
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Sayohatchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish: raqamli xavfsizlik va qonunchilik o'zaro ta'siri	345
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Yangi konstruktiviy aylanuvchi stolga ega tikuv mashinasida tajribalar tahlili	351
Amonov Abdurahmon Rafiq o'g'li, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi	356
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
Пути обеспечения инклюзивного роста республики узбекистан	363
Аскарова Мавлуда Турабовна	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili	372
Baxriddinov Sharofiddin	

MAMLAKATIMIZDAGI TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Baxriddinov Sharofiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

E-mail: bakhriddinov5599@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7899-0217

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning zamonaviy holati chuqur tahlil etilgan. Unda bank aktivlari tarkibining muhim elementlari — kredit portfeli, qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalar, asosiy vositalarga yo'naltirilgan mablag'lar va balansga olingan mol-mulkul ulushi o'zgarishlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada aktivlar portfelinin diversifikatsiyasi, likvidlikni saqlash, daromadlilikni oshirish va risklarni kamaytirish masalalari ham yoritilgan. Tahlil asosida banklar balansida ortib borayotgan immobil va daromad keltirmaydigan aktivlar ulushini kamaytirish, qimmatli qog'ozlarga investisiyalar samaradorligini baholash, shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlarni boshqarish, kredit portfeli, qimmatli qog'ozlar, likvidlik, asosiy vositalar, balansga olingan mol-mulkul, bank strategiyasi.

Abstract: The article provides an in-depth analysis of the current state of asset management in commercial banks in the Republic of Uzbekistan. It analyzes the changes in the key elements of the structure of bank assets - the loan portfolio, investments in securities, funds allocated to fixed assets and the share of assets taken to the balance sheet. The article also covers the issues of asset portfolio diversification, maintaining liquidity, increasing profitability and reducing risks. Based on the analysis, proposals have been developed to reduce the growing share of immovable and non-performing assets on the balance sheet of banks, assess the effectiveness of investments in securities, and ensure the financial stability of banks.

Keywords: commercial banks, asset management, loan portfolio, securities, liquidity, fixed assets, assets taken to the balance sheet, bank strategy.

Аннотация: В статье дается глубокий анализ текущего состояния управления активами в коммерческих банках Республики Узбекистан. Анализируются изменения ключевых элементов структуры активов банка - кредитного портфеля, вложений в ценные бумаги, средств, направляемых в основные средства, и доли активов, принимаемых на баланс. В статье также освещаются вопросы диверсификации портфеля активов, поддержания ликвидности, повышения доходности и снижения рисков. На основе анализа разработаны предложения по снижению растущей доли недвижимых и неработающих активов на балансе банков, оценке эффективности вложений в ценные бумаги, обеспечению финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, управление активами, кредитный портфель, ценные бумаги, ликвидность, основные средства, активы, принимаемые на баланс, стратегия банка.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining moliyaviy sektori jadal sur'atlarda rivojlanib, tijorat banklari iqtisodiy tizimda strategik ahamiyatga ega bo'lgan institutlarga aylangan. Ular nafaqat aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy vositachilikni amalga oshiradi, balki investitsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday sharoitda banklar faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri — ularning aktivlarini to'g'ri boshqarish mexanizmidir.



Tijorat banklari aktivlarining tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligi bankning likvidligi, rentabelligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank aktivlari portfelining sifatli shakllantirilishi va diversifikatsiyasi o'z navbatida bank strategiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu bois, bank aktivlarini boshqarishning zamonaviy uslublarini o'rganish, ularni baholash mezonlarini aniqlash va ularning amaliy natijalari tahlili bugungi kun ilmiy va amaliy tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarining aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy komponentlar - kredit portfeli, qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va balansga olingan mol-mulk holati o'rganiladi. Tahlil orqali bank aktivlarining tuzilmasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ularning moliyaviy samaradorlikka ta'siri va mavjud muammolar aniqlanib, bank portfelini strategik boshqarishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Banklarda aktivlarni boshqarish markaziy muammo bo'lib, bank balansi tarkibini optimallashtirish va bank yalpi daromadini maksimallashtirish kabi muhim maqsadlarga erishish uchun tegishli daromad va xarajat moddalarini hisobga olgan holda bank aktivlari tarkibi qanday bo'lishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Bu ehtiyoj banklarni rentabellik, tavakkalchilik, likvidlik va risklar o'rtasida optimal muvozanatni aniqlashni talab qiladi. Bu omillar o'rtasidagi optimal muvozanatni bank majburiyati va kapitali tarkibi hamda uning aktivlari tarkibi o'rtasida mavjud bo'lgan muhim o'zaro ta'sirlarni hisobga olmasdan turib topish mumkin emas.

MDH davlatlari iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilarining bank aktivlarini boshqarish borasidagi tadqiqotlaridan foydalanish va ularni tadqiq etish muhim hisoblanadi. Buning asosiy sababi, MDH davlatlarining bank tizimi shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari O'zbekiston bank tizimiga o'xshashlik xususiyatlari mavjudligi, tadqiqot ishining nazariy ahamiyatini oshiradi.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqinlar beriladi. Jumladan, O.I.Lavrushin "Aktiv va passivlarni boshqarishning maqsadi bank bosh strategiyasi natijalarini balans tarkibi va rentabelligiga ko'ra tahlil qilish orqali nomutanosiblikni bartaraf etish yoki to'g'rilash hamda bank faoliyatini risklardan himoyalashtirish"[3] – deya ta'rif beradi. Fikrimizcha, ushbu masalaga avvalambor bank strategiyasi nuqtai nazaridan qarash maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, strategiya asosida maqsadlar tizimi yotadi, ya'ni bank strategiyasining turli vaqt oralig'ida turlicha maqsadlar ko'zlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning qisqa muddatli va uzoq muddatli aspektlarini farqlash muhim. Banklarda qisqa muddatli (1 yilgacha) muddatda aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi me'yoriy risk darajasida sof foiz daromadini maksimallashtirish yoki aksincha, me'yoriy sof foiz daromadi darajasida riskni minimallashtirishdan iborat. Uzoq muddatda bank aktiv va passivlarini boshqarishdan asosiy maqsad yuqori foyda olish hisobiga bank kapitalining bozor qiymatini maksimallashtirishdan iborat. Bank kapitali qiymatini oshirish hamda bankning rivojlanishi orqali bank aksiyadorlarining talablari bajariladi.

Banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy mohiyati shundan iboratki, boshqaruvning alohida usullari (aktivlarni va passivlarni boshqarish)ni muvozanatli bir jarayonga birlashtiradi. Shundan kelib chiqqan holda, aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy vazifasi – bank balansini barcha qismlarini birgalikda boshqaruvdir.[3]

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda banklarning "aktivlari" va "aktiv operatsiyalari" tushunchalarini ham farqlangan holda tadqiq etiladi. Xususan, S.A.Zubov fikricha "tijorat bankining aktivlari deganda o'z va qarz mablag'larini joylashtirish tushunilsa, banklar aktiv operatsiyalari likvidlik va aktivning o'zi va xavfsizligining ma'lum standartlariga rioya qilgan holda yuqori daromad olish uchun investisiyalarni amalga oshirishdir"[4] mazmunga ega ekanligini tushuntiradi.

V.V.Osadchiy tadqiqotlariga ko'ra, "tijorat bankining aktivlari bankning buxgalteriya hisobida aks ettirilgan aktiv operatsiyalarining pul qiymatini ifodalaydi. Tijorat bankining aktivlari bo'yicha operatsiyalar - bu foyda olish va likvidlikni saqlash maqsadida mavjud pul resurslarini joylashtirish bo'yicha operatsiyalar tushuniladi.[5] Tadqiqotchining izlanishlaridan ko'rish mumkinki, tijorat

bankning aktiv operatsiyalari xususida tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo aktivlarni boshqarish va uning bank faoliyatidagi ahamiyati xususida to'xtalib o'tilmagan.

Rossiyalik tadqiqotchilar Ye.V.Levkina va O.N.Shevchenko tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra "banklarda aktivlar va passivlarni boshqarish - bu rentabellikni saqlash va turli risklarni minimallashtirish uchun kredit tashkilotining balans ko'rsatkichlarini doimiy ravishda taqqoslash va tartibga solish tushuniladi. Shuningdek, tijorat banklari faoliyatida aktivlar va passivlarni boshqarish muammolarni aniq hal qilishga yordam beradi:

- mablag'larni jalb qilish (shu jumladan shartlar va stavkalarni aniqlash);
- mavjud mablag'larni taqsimlash;
- asosiy kapitalga investisiyalar;
- o'z kapitalini saqlash va boshqalar".[6]


Tadqiqotchilar "aktivlar va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi foiz daromadlari va bankning valyuta pozitsiyasi belgilangan hamda bank likvid aktivlarini oqilona chegaralarda ushlab turishdan iborat" degan xulosani berishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqoladagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank aktivlari portfelini boshqarishda aktivlarning asosiy qismini tashkil etadigan va muhim daromad manbai bo'lgan kredit portfelining o'zgarishini baholash amaliy jihatdan yuqori ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Tijorat banklari kredit portfelining jami aktivlardagi ulushining o'zgarishi (foiz hisobida).¹

Tahlil davrida bank tizimi bo'yicha banklarning muhim daromad keltiruvchi qo'yilmalari kamayish tendensiyasini namoyon etgan, ya'ni banklarning kredit portfeli qoldig'i so'nggi besh yilda 73,8 foizdan 66,9 foizga qadar kamaygan. Ushbu holat AT "Aloqabank" da qariyb 15 foizga pasayish kuzatilgan bo'lsa, Xalq bankida 7 foizga kamaygan. 2023 yil holatiga kredit portfelining jami aktivlardagi ulushi 70 foizga yetgan bo'lsada, 2024yil yakunida 66,9 foizgacha pasaygan. Buning asosiy sababi sifatida banklarning tayyor bo'lgan binolarini bank balansiga olinishi va banklarning balansiga olingan mol-mulklar miqdorining oshishi hisobiga yuz bergan. Ushbu holatda banklar balansiga olingan mol-mulklar kredit portfeli takribidan chiqarilib, alohida balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Tijorat banklari kredit portfelining jami aktivlardagi ulushining qisqarishini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, so'nggi besh yillikda banklarning jami aktivlari 2,1 barobarga oshib, uning tarkibida kreditlarning o'sishi 1,9 barobarni tashkil etib, aktivlar o'sishiga nisbatan ortda qolgan;

ikkinchidan, banklar aktivlar portfelida asosiy vositalarga, ayniqsa davlat ulushi mavjud banklarning yuqori qiymatdagi bino-inshoatlar uchun o'zlik va jalb qilingan mablag'larni yo'naltirishi aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlarni qisqarishiga olib kelgan;

uchinchidan, banklarning balansiga olingan mol-mulklarning (bank balansi 16700-hisobvaraqlar qoldiqlari) oshishi ham bank aktivlarining kredit qo'yimalariga nisbatan yuqori sur'atlarda oshishiga olib kelgan;

to'rtinchidan, banklarning aktivlari tarkibida ijobiy ta'sir qilgan omillardan biri banklarning qimmatli qog'ozlar va ularga qilingan investisiyalarning ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi kabi omilarning ta'sirini amaliy jihatdan ko'rib chiqish va tegishli xulosalar qilish banklar faoliyatida aktivlar portfelini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investisiyalar kiritish amaliyotlari banklarning aktivlar portfelini boshqarish va samaradorlikni oshirishda bugungi kundagi muhim masala bo'lib qolmoqda. Banklar faoliyatida qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalarning ijobiy jihatlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'lib, uning asosiy quyidagilar hisoblanadi:

- tijorat banklari tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar yuqori likvidli aktiv hisoblanadi va bankning yuqori likvidli aktivlari toifasiga kiritiladi. Bu esa, bankning likvidligini ta'minlash uchun qo'shimcha xarajatlarni qisqartirishga va bank likvidligi bo'yicha o'rnatilgan normativlarni bajarishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi;

- banklarning qimmatli qog'ozlari portfeli risk nuqtai nazardan (O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bankiga to'g'ridan-to'g'ri talablar va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hamda ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari tomonidan chiqarilgan ta'minlangan qarz munosabatlarini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar, Xorijiy davlatlarning hukumatlari va Markaziy banklarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investisiyalar) risk darajasi 0 foiz qilib belgilanganligi, bankning risklik aktivlarini kamaytirishga hamda buning natijasida bank kapitalining monandlik ko'rsatkichini yuqori bo'lishiga xizmat qiladi;

- qimmatli qog'ozlardan olingan foizli daromadlar banklarning foyda solig'i bazasiga kiritilmaydi, natijada banklarning qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlarining 20 foiz miqdori bank foydasini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur holatda qimmatli qog'ozlarning yillik foiz stavkasi past bo'lishi mumkin, ammo yuqoridagi kabi ijobiy holatlar qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalar banklarning barqarorligi, likvidligi va belgilangan normativlarni bajarilishi bilan holatlardan kelib chiqib samarali ekanligini ko'rish mumkin.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalarning jami aktivlar tarkibidagi o'zgarishi (foizda).²

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalari miqdori so'nggi besh yillik o'sish tendensiyasini namoyon etgan va ijobiy holat hisoblanadi. Bank tizimida 2020 yilga nisbatan banklarning qimmatli qog'ozlarga kiritgan mablari 1,8 foizdan 4,1 foizga oshgan va 2024 yil yakunida 5,9 foizni tashkil etgan.

Tahlil davrida ob'yekt sifatida tanlangan banklardan Xalq bankining qimmatli qog'ozlarga kiritgan investisiyalari miqdori 15,5 foizga oshgan va tahlil davri yakunida 16,9 foizni tashkil etgan. Trastbankning qimmatli qog'ozlarga kiritgan investisiyalarini jami aktivlardagi ulushi 12,9 foizni tashkil etgan va 2024 yil yakunida 14,8 foizni tashkil etgan. AT Aloqabankning 2020-2024 yillar davomida qimmatli qog'ozlarga kiritgan mablag'lari miqdori jami aktivlari tarkibida 2 barobarga oshgan va 4,6 foizdan 9,1 foizga yetgan.

Banklarning qimmatli qog'ozlarga investisiya kiritish amaliyotlarining rivojlanishini va ularning aktivlar tarkibidagi ulushining ortishini quyidagilar jihatlar bilan asoslash mumkin:

- Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amaliyotlar va REPO insrutmentlaridan keng foydalanayotgani. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijoratbanklarigajoylashtirilganobligatsiyalarhajmi2020yilyakunida5,3trillionso'mnitashkiletganbo'lsa, 2025 yilning 1 yanvar holatiga 17,5 trillion so'mni tashkil etgan.

- moliya bozorida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan REPO operatsiyalari 2022 yilda 531,2 mlrd so'mni, 2023 yilda 76 418,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil bo'yicha jami 273 440,3 mlrd so'mlik REPO operatsiyalarini amalga oshirgan. Markaziy bank REPO operatsiyalari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasining pasayib borishiga qaramasdan, so'nggi yillarda uning jozibadorligi oshib borishi hisobiga ushbu amaliyotlar miqdori o'sganini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi amalga oshirilgan tahlillar asosida banklarning aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan aktivlari ulushiga nisbatan minimal talabni belgilash va uning bajarilishini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1-jadval. AT "Aloqabank" tomonidan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalarning samaradorligi o'zgarishi³

Ko'rsatkichlar	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Jami aktivlar, (mlrd.so'm)	8 108	12 537	16 084	16 045	23 251
Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talab (%)	10	10	10	10	10
Bankning kassasidagi va Markaziy bankdagi mablag'lari, (mlrd.so'm)	629	1 515	2 105	1 262	2 338
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar, (mlrd.so'm)	371	410	790	210	2 114
Bankning jami yuqori likvid aktivlari, (mlrd. so'm)	1 000	1 925	2 895	1 471	4 452
Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talabning bajarilishi (%)	12,3	15,4	18,0	9,2	19,1
Shundan, kassali aktivlar hisobidan, (%)	7,8	12,1	13,1	7,9	10,1
qimmmatli qog'ozlar hisobidan, (%)	4,6	3,3	4,9	1,3	9,1
Qimmatli qog'ozlar jalb etilmagan holatda qo'shimcha resurslarni jalb etish uchun natijasidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar tejallishidan olingan shartli daromad (resurslar bo'yicha foiz xarajatlari Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidahisoblangan)	52	57	111	29	296

3 AT "Aloqabank" hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar bo'yicha foizli daromadlar, (mlrd.so'm)	27	-	78	91	266
Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan foizli daromatlarni soliq bazasidan chegirilishidan olingan natija (foyda solig'i 20 foiz), (mlrd.so'm)	5	-	16	18	53
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning yakuniy natijasi (daromad yoki zarar), (mlrd.so'm)	84	57	204	138	615

AT "Aloqabank" tomonidan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'larning so'nggi besh yilda oshirib borilganini ijobiy holat sifatida baholash muhim hisoblanadi. Bankning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan normativni bajarishda qimmatli qog'ozlar hisobidan 2020 yilda 4,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil yakunida 9,1 foiz qismi qimmatli qog'ozlar hisobidan shakllantirilgan. Bu esa, bankning qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish va u bilan bog'liq resurs xarajatlarni tejash imkonini bergan.

Bankning qimmatli qog'ozlarga investisiyasi mavjud bo'lmagan holatda yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talablarni bajarish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish zarurati paydo bo'lardi. Uning natijasida qo'shimcha resurslar jalb qilish va ular uchun foizli xarajatlarni amalga oshirishi talab etiladi. Bankning qo'shimcha resurslarni jalb etish uchun xarajatlar tejalishidan olingan shartli daromadlari Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasida hisob-kitob qilindi va shartli daromad va soliq imtiyoz bilan birga bankning 2024 yil yakunidagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan shartli moliyaviy natija 615,3 mlrd so'mni tashkil etgan.

Banklarning qimmatli qog'ozga yo'naltirilgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lari hajmining oshishi bilan uning ijobiy moliyaviy natijalarga erishganini qayd etib o'tish lozim.

2-jadval. Trastbank tomonidan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligi o'zgarishi⁴

Ko'rsatkichlar	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Jami aktivlar, (mlrd.so'm)	4 735	6 876	8 232	9 450	10 868
Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talab (%)	10%	10%	10%	10%	10%
Bankning kassasidagi va Markaziy bankdagi mablag'lari, (mlrd.so'm)	1 360	2 200	2 418	2 233	2 231
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar, (mlrd.so'm)	613	1 142	1 421	1 023	1 610
Bankning jami yuqori likvid aktivlari, (mlrd.so'm)	1 973	3 342	3 839	3 256	3 841
Yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talabning bajarilishi, (%)	41,7%	48,6%	46,6%	34,5%	35,3%
Shundan, kassali aktivlar hisobidan, (%)	28,7%	32,0%	29,4%	23,6%	20,5%
qimmatli qog'ozlar hisobidan, (%)	12,9%	16,6%	17,3%	10,8%	14,8%
Qimmatli qog'ozlar jalb etilmagan holatda qo'shimcha resurslarni jalb etish uchun natijasidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar tejalishidan olingan shartli daromad (resurslar bo'yicha Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasida foiz xarajatlari hisoblangan)	86	160	199	143	225

4 AT "Aloqabank" hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar bo'yicha foizli daromadlar, (mlrd.so'm)	72	16	235	199	207
Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan foizli daromatlarni soliq bazasidan chegirilishidan olingan natija (foyda solig'i 20 foiz), (mlrd.so'm)	14	3	47	40	41
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalarning yakuniy natijasi (daromad yoki zarar), (mlrd. so'm)	173	179	481	383	474

Trastbank tomonidan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalari jami aktivlardagi ulushi tahlil davrida 10 foizdan yuqori bo'lgani muhim natija hisoblanadi. Bankning qimmatli qog'ozlar portfelini samarali boshqarish amaliyoti mavjudligini ko'rsatmoqda. Bankning yuqori likvidli aktivlarga nisbatan belgilangan talabning bajarilishi tahlilidan, ushbu ko'rsatkichning o'rnatilgan talabga nisbatan yuqori bajarilishini ko'rish mumkin. Ushbu holat salbiy hisoblansada, lekin bankning muddatsiz depozitlar qoldig'iga ega yirik mijozlari (birjalar va shu kabilar) mavjudligi va ular faoliyatida doimiy qoldiq qolishi Trastbankning hisobot davridagi ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. Bank tomonidan kassali aktivlarga (Markaziy bankdagi va kassadagi likvid aktivlar) ehtiyoj mavjudligi, mijozlar oldidagi majburiyatlarni tezkor bajarilishi uchun ushlab turiladi.

Trastbank tomonidan qimmatli qog'ozlar portfelining optimal shakllantirilishi, uning yakuniy moliyaviy natijalarida ham o'z aksini topganini ko'rish mumkin. Bankning qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalardan erishilgan yakuniy natijasi 2024 yilda 474 mlrd so'mni tashkil etgan va tahlil davrida 2,7 barobarga o'sishga erishilgan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalarining jami aktivlardagi ulushini 10 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash bankning aktivlar portfelini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimi bo'yicha tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalarining jami aktivlardagi ulushi 2024 yil 31 dekabr holatiga 5,9 foizni tashkil etgan. Tijorat banklari aktivlar portfelida qimmatli qog'ozlar ulushining oshirilishi, kelgusida banklar aktivlar portfelini boshqarish bilan birga, makroiqtisodiy jihatdan fond bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'mirni yuzaga keltiradi.

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari asosiy vositalarga qilingan investisiyalarining aktivlar tarkibidagi o'zgarishi(foiz hisobida)⁵

Banklar	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	31.12.24	2024 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi
Aloqabank	5,7	6,5	7,7	12,8	11,1	5,4
Trastbank	5,0	4,2	4,1	4,1	4,5	-0,5
Xalq banki	2,9	3,5	3,4	2,9	2,4	-0,5
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	2,4	2,5	2,6	3,0	3,2	0,9

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari asosiy vositalarga qilingan investisiyalarining aktivlar tarkibidagi ulushi o'zgarishining tendensiyasidan o'rtacha ko'rsatkich tahlil davrida 0,9 foiz bandga ortganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari, xususan, davlat ulushi mavjud banklarning ko'chmas mulklarga kiritayotgan investisiyalari hajmi so'nggi yillarda keskin oshib bormoqda. Ushbu holat bank tizimida binolar qurish, yirik yangi loyihalarda ishtirok etib, aylanmadagi mavjud resurslarni

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



bino-inshoatlar uchun sarflamoqda. AT “Aloqabank” ning aktivlari tarkibida asosiy vositalarga qilingan investisiyalarning jami aktivlardagi ulushi 2023 yil yakunida 12,8 foizga yetib tahlil davridagi maksimum ko'rsatkichni qayd etgani salbiy holat bo'lib, bankning aktivlar portfelida daromad keltirmaydigan aktivlarning yuqori to'planishi yuzaga kelgan. AT “Aloqabank” ning ushbu toifadagi aktivlari oshishi, kelgusida aktivlar portfelini boshqarish va aktivlar samaradorligini oshirishda qator muammolarni keltirib chiqaradi.

AT “Aloqabank” faoliyatda mavjud asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish va bank faoliyati uchun zarur bo'lmagan hamda foydalanilmaydigan mol-mulkni sotish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Ushbu tavsiyadan bank amaliyotida foydalanish natijasida bankning asosiy vositalarning jami aktivlardagi ulushi 2023 yil yakunidan 12,8 foizdan 2024 yil yakunida 11,1 foizga yoki jami 1,7 foiz bandga pasayishiga erishildi.

AT “Aloqabank” balansida asosiy vositalari qisqarishi hisobiga, daromad keltiradigan aktivlar, xususan qimmatli qog'ozlar portfelining o'sishi ta'minalanishiga xizmat qildi.

4-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar tarkibida balansga olingan mol-mulk qoldig'ining o'zgarishi(foiz hisobida)⁶

Banklar	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	31.12.24	2024 yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi
Aloqabank	0,4	0,4	0,9	2,5	1,5	1,1
Trastbank	0,0	0,2	0,0	0,9	0,5	0,5
Xalq banki	0,1	0,0	0,0	1,6	1,6	1,6
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	0,2	0,3	0,6	0,7	0,9	0,7

Tijorat banklari aktivlar tarkibida balansga olingan mol-mulk qoldig'ining o'sish tendensiyasini namoyon etishi xavotirli holat hisoblanadi. Ushbu 16700-balans hisobvara qoldiqlari kredit portfelida muammoga aylangan va bugungi kunda foiz daromad keltirmaydigan, auksionlarda sotilmagan nollikvid aktivlarning yig'indisi bo'lib, banklarning aktivlar samaradorligiga salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

AT “Aloqabank” ning aktivlar tarkibida balansga olingan mol-mulk qoldig'i so'nggi besh yillikda 0,4 foizdan 1,5 foizga qadar yetgan hamda tahlil davrida 2,5 foiz bilan tarixiy maksimumni qayd etgan. Trastbank faoliyatida ushbu aktivlarning jami aktivlardagi ulushining pastligi ijobiy hisoblanadi va bankning aktivlar portfelini samarali boshqaruv tizimi yaratilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bankning kredit siyosati va kreditlash jarayonlarining hamda muammoli aktivlar bilan ishlash tizimini to'g'ri tashkil etilgani bilan izohlanadi.

Banklarning muammoli aktivlari bilan ishlash borasida Xalq bankida ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilgan. Mazkur bankning aktivlari tarkibida balansga olingan mol-mulk ulushi 0,1 foizdan 1,6 foizga qadar oshgan, ya'ni 2023-2024 yillardagi qoldiq 1,6 foizni tashkil etgan.

Bank tizimi bo'yicha ushbu ko'rsatkichning o'rtachasi 0,2 foizdan 0,9 foizga chiqishi, banklar aktivlarining qariyb 1 foizi immobil aktivlarga aylanib daromad keltirmasdan bank aylanmasidan chiqqanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi “Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulk realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-142-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, 2025 yil 1 maydan boshlab ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan banklar va ular huzuridagi investisiya kompaniyalari auksionda sotilmasdan qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga olingan mol-mulkni o'zlari sotish

6 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

huquqiga ega.[1] Ular shuningdek, bunday mol-mulkni kredit, bo'lib-bo'lib to'lash yoki lizing shartnomalari orqali sotishlari mumkin.[6] Shuningdek, tijorat banklari qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga qabul qilingan bino-inshootlar, texnologik uskunalar va boshqa mol-mulklar negizida tijorat banklari huzuridagi investisiya kompaniyalari orqali to'xtab qolgan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatini tiklab, ularni tayyor biznes sifatida salohiyatli investorlarga sotish huquqiga ham ega. Ushbu amaliyotning joriy etilishi, banklarning balansiga olingan mulklarni sotishni rag'batlantirib, aktivlar portfeli tarkibini samarali boshqarish imkonini beradi.

Tijorat banklari balansga olingan mol-mulklarni qisqa vaqtda sotilishini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

- balansga olingan mol-mulk to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni shakllantirish va uni sotish haqida potensial xaridorlarga taklif eitish yoki bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali e'lonlar berish tizimini joriy etish;

- ochiq va shaffoflikni ta'minlash maqsadida, balansga olingan mol-mulklarni auksionga joylashtirish.

Banklarning balansiga olingan mol – mulklarni kreditlar vositasida sotish amaliyotlari keng qo'llaniladi. Ushbu holat muammoli aktivlarni vaqtinchalik bartaraf etgandek bo'lishi mumkin, ammo uning kelgusidagi holati muammoli aktivlarni yanada oshishiga sabab bo'ladi.

Bankning mavjud muammoli aktivlarni sotish yoki uni bo'lib-bo'lib to'lash shaklida berilishida ushbu aktivlar summasidan tashqari yangi ajratiladigan kreditlar stavkasini pasaytirish amaliyotini qo'llamaslik hamda ushbu aktivlarga ajratiladigan kreditlar muddatini 3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga cheklash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot so'ngida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfeli so'nggi besh yillikda banklarning jami aktivlariga nisbatan qisqarish tendensiyasini ko'rsatgan. Buning asosiy sabablari — ko'chmas mulk va boshqa nodaromad aktivlarga yo'naltirilgan sarmoyalar ortishi bilan bog'liq.

Qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar banklar uchun yuqori likvidli va kam riskli aktivlar sifatida strategik ahamiyatga ega. Bu investitsiyalar orqali banklar nafaqat daromad olish, balki soliq imtiyozlaridan ham samarali foydalanmoqda.

Asosiy vositalarga haddan tashqari investitsiya kiritilishi (ayniqsa davlat ulushi mavjud banklarda) banklar portfelida daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining oshishiga olib kelmoqda. Bu holat uzoq muddatda bank samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Balansga olingan mol-mulk ulushining oshishi foiz daromad keltirmaydigan aktivlarning ko'payishiga va bank resurslarining muzlab qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday aktivlarni qisqa muddatda realizatsiya qilish va qayta moliyaviy aylanishga kiritish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlar portfelining samaradorligini oshirish uchun qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini 10 foizdan yuqorida saqlash, asosiy vositalarni optimallashtirish va balansga olingan mol-mulklarni sotish tizimini takomillashtirish zarur.

Prezident qarorlari asosida joriy etilayotgan mol-mulk realizatsiyasi bo'yicha yangi mexanizmlar banklar balansini tozalash va aktivlar tarkibini sog'lomlashtirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi "Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-142-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/5-son qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom. <https://lex.uz/uz/docs/2703053>



3. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.2003.371-с
4. Зубов С. А. Управление активами коммерческого банка: дис. ... канд. экон. наук. - М., 1997. - 180 с.
5. Осадчий В.В. Методология и принципы распределения активов // Журнал прикладных исследований. –2021. – № 6. – С. 128-132.
6. Левкина Е.В., Шевченко О.Н. Оценка управления активами и пассивами в коммерческом банке (на примере ОАО АКБ Приморье) журнал Экономические науки/ №8 2015 г. СТР.47-56. <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=7818>
7. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/banklar_qarzdorlik_hisobiga_balansga_olingan_mol-mulklarni_uzlari_sotishadi

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100